



XORAZM VOHASI SO'NGGI BRONZA DAVRI JAMIYATINING IJTIMOIY-IQTISODIY MUNOSABATLARI

Shakirova Mardona,

*Urganch davlat universiteti, Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar fakulteti, Tarix
yo'nalishi magistranti,*

shakirovamardona@gmail.com

Maqolaning qisqacha mazmuni: Ushbu maqolada Xorazm vohasining tarixiy-geografik hududlarida miloddan avvalgi II ming yillik o'rtalari va oxirida jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Xorazm, bronza, Jonbosqal'a, Y. G'ulomov, M. A. Itina, Suvyorgan, Tozabog'yob

SOCIO-ECONOMIC RELATIONS OF THE LATE BRONZE AGE SOCIETY OF THE KHOREZM OASIS

Shakirova Mardona,

*Urganch state university, Socio-economic sciences faculty, Department of
history, Master's degree student,*

shakirovamardona@gmail.com

Annotation: This article analyzes the socio-economic relations of society in the historical-geographical regions of the Khorezm oasis in the middle and end of the 2nd millennium BC.

Key words: Khorezm, bronze, Jonboskala, Y. Gulyomov, M. A. Itina, Suvyorgan, Tozabogyob.



СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ОТНОШЕНИЯ ОБЩЕСТВА ПОЗДНЕГО БРОНЗОВОГО ВЕКА ХОРЕЗМСКОГО ОАЗИСА

Шакирова Мардона,

*Ургенчский государственный университет, Факультет социально-
экономических наук, Направление истории, Магистрант,*

shakirovamardona@gmail.com

Аннотация: В статье анализируются социально-экономические отношения общества в историко-географических регионах Хорезмского оазиса в середине и конце II тысячелетия до н.э.

Ключевые слова: Хорезм, бронза, Джонбоскала, Ю. Гулёмов, М. А. Итина, Сувыюрган, Тозабогёб.

Kirish. Miloddan avvalgi II ming yillik o'rtalari va oxiri O'rta Osiyo tarixida, xususan O'zbekiston ibtidoiy jamoa tuzumi davri tarixida yuz bergan o'zgarishlar bilan muhim bir davr hisoblanadi. Ta'kidlash lozim bo'ladiki, eneolit davri jamiyatining barcha sohalarda erishgan yutuqlari bronza davri aholisi rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etgan. Shuning uchun bronza davri jamiyatining rivojlanishi notekis holatda davom etgan. Mazkur maqolada yuqorida qayd qilingan bronza davri madaniy-xo'jalik hududlarida yuz bergan o'zgarishlarga sabab bo'lgan omillarni yoritish maqsad qilingan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Miloddan avvalgi II ming yillik o'rtalari O'zbekiston xududi va Volga Don oralig'ida yog'och ustunli, yarim erto'lalarda istiqomat qilib, uy chorvachiligi, ovchilik va termachilik sohaslarini olib borgan qabilalarda aholi soni oshib borgan. Natijada mazkur qabilalarning bir guruh vakillari Qizilqum sahrosi orqali Sultan Uvays tog'ini aylanib o'tib, Yonboshqal'a balandligi atroflari axoli zich joylashganligini inobatga olib, axoli



joylashmagan xududga joylashib, mahalliy aholi bilan madaniy aloqalar rivojlanishi natijasida Tozabog'yob madaniyatiga asos solganlar[1]. Xorazm vohasi aholisining bronza davri o'rtalari va so'nggi bosqichlarida olib borgan xo'jalik madaniyatini keng miqyosda arxeologik jihatdan o'rgangan M.A.Itina qayd qilgan tarixiy ma'lumotlar tadqiqotchilar e'tiborini jalb qilgan. Jumaladan, Xorazm ekspeditsiyasi xodimlari nashrlarida miloddan avvalgi II ming yillar o'rtalarida Tozabog'yobliklar mahalliy ziroatchilar bo'lganligi qayd qilingan. M.A.Itina o'z qarashlarida S.P.Tolstov va Ya.G'ulomovlarning Quyi Amudaryo xududida dehqonchilikning ilk ildizini Suvyorgan-kaltaminorliklar olib borganligi to'g'risidagi xulosalari inobatga olinmagan[4]. Tadqiqotchi bronza davri o'rtalari va so'nggi davrida aholi tomonidan olib borilgan xo'jalik faoliyatini yoritishda xatoga yo'l qo'ygan. Chunki, ilk ziroatchilik Jonbos-4 manzilgo'hi urug jamoalari vorislari tomonidan olib borilib, yog'ochband va andronovaliklar miloddan avvalgi IX asrda omuxtalashganligini inobatga olish lozim[5].

M.A.Itina monografiyasining IV bobida so'nggi bronza davrida Janubiy Orolbo'yi hududida miloddan II ming yillik oxiri I ming yillik boshlarida Tozabog'yob va andronova qabilalarining omuxtalashishi natijasida Amirobod madaniyati shakllanganligini va aholi turar joylari yog'och ustunli yarim yerto'la shaklda ekanligini qayd qilgan[3].

Ya.G. G'ulomov Xorazmda Tozabog'yob, Amirobod madaniyatini olib borgan aholi an'analari Zomonbobo ko'li atroflarida o'rnatilgan aholi kundalik faoliyatlarida takrorlanganli haqida ma'lumotlar uchraydi.

Tadqiqotning nazariy va metodologik asoslari sifatida taniqli arxeolog, tilshunos, o'lkashunos, adabiyotshunos, manbashunos, tarixchi olimlarning asarlari hamda ilmiy tadqiqotlari xizmat qiladi. Tanlangan mavzuning mohiyatidan kelib chiqqan holda uni yanada chuqurroq va batafsilroq yoritish uchun bir qator tadqiqot usullaridan foydalanildi.



Tahlil va natijalar. Bronza davrida keng o'zlashtirilgan Xorazm vohasining sharqiy qismidagi Oqchadaryo deltasida mil. avv. VII-VI asrlarga oid manzilgohlar topilmagan. Ma'lumki, bronza davrida Oqchadaryoning irmoqlaridan ariqlar chiqarilib, nisbatan kichik dalalar yarim yer to'la turar joylari atrofida joylashib, dehqonchilik ishlari urug' jamoalarning kuchlari bilan amalga oshirilgan, sug'orma dehqonchilik sohasi cheklangan holda rivojlangan[9]. Sariqamishbo'yi saklarning hayotida o'ziga xos xususiyatlaridan iborat ijtimoiy-iqtisodiy tuzum rivojlangan[6]. Chorvachilik xo'jaligini rivojlantirish maqsadida foydalanilgan yerlar, qabilalar o'troqlashib joylashgan yoki mavsumiy ko'chib yurgan etnik hududlarni tashkil etgan. Bu borada Daryoliq, Dovdon, Uzboy o'zanlari atrofidagi yaylovlar chorvani boqish uchun manbai bo'lgan[8]. Chorvador jamoalarning ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarida chorvachilik xo'jaligini tashkil etish tamoyillari, yaylovlarning mavsumlar bo'yicha taqsimlash va yaylovlar chegaralarini belgilash kabi katta ahamiyatga ega vazifalarni tashkil etgan. Ushbu vazifalarni qadimgi davrlarda amalga oshirilishi jarayonlarini o'rganishda va chorvachilik xo'jaligi tarixini qayta tiklashda tadqiqotchilar arxeologik va etnografik ma'lumotlarga muroisara etishadi, shuningdek, paleogeografik sharoit o'rganiladi[2].

Xulosa va takliflar. O'zbekiston tarixida miloddan avvalgi II ming yillik o'rtalari va oxirlarida kechgan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar va etnik jarayonlarda yuz bergan o'zgarishlar to'g'risida yakuniy xulosalarga kelindi. Jumladan miloddan avvalgi II ming yillik o'rtalaridan O'zbekistonga shimoldan Volga-Don oralig'ida qabilalar va Qozog'iston shimoli-sharqida joylashgan Andronova ko'chmanchi chorvador qabilalari Oqchadaryo xavzasi janubiy hududiga kelib joylashib, etnik munosabatlarni faollashtirganlar. Andronovaliklarning boshqa vakillari G'arbiy Zarafshon, Toshkent va Farg'ona vodiylariga joylashib, mahalliy aholi bilan omuxtalashgan xo'jalik madaniyati shakllanganligi, shuningdek mazkur kelgindi qabilalar ishtirokida Xorazmda Tozabog'yob, Amirobod madaniyatlari vujudga kelgali to'g'risida xulosa qilindi.



Foydalanilgan adabiyotlar

- [1]. Андрианов Б.В. Древние оросельные системы Приаралья. С. 113.
- [2]. Баратов С.Р. Некоторые проблемы археологических исследований древних культур Хорезма. - С. 25.
- [3]. Болелов С.Б. Ранний этап становления ремесленного производства на территории. Хорезма. С. 5.
- [4]. Толстов С.П. Древний Хорезм. -М.: 1948.-С.70.
- [5]. Толстов С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта. - С. 68-77.
- [6]. Толстов С.П. Қадимги Хоразм маданиятини излаб. Тошкент, 1964. Б. 360; Низовья Амударья. С. 183.
- [7]. Фуломов Я.Г. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. Б. 81.
- [8]. В. Ягодин В.Н. Генезис и формирование раннехорезмийской государственности. -С.115
- [9]. Юсупов Х.Ю. Поселение эпохи поздней бронзы на Канга-гыре.//Скотоводы и земледельцы Левобережного Хорезма,Москва: 1991, С.109-112.